

YOSH AVLODNING ONGIGA MUMTOZ MUSIQA SAN'ATI DURDONALARINI SINGDIRISHDA “USTOZ-SHOGIRD” AN'ANALARINING QO'LLANISHINING AHAMIYATI.

Sultonov Abduraxim Abduraxmanovich

Guliston davlat universiteti, 120100.

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: abdurahim167@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda bizning mumtoz musiqa san'atimizni, maqomlarimizni, an'anaviy ijrochiligimizni xalqimizning juda kam foizini tushunadi. Xattoki musiqa san'ati bilan shug'ullanib yurgan va shu sohada o'qigan xonanda va sozandalarda ham o'tgan XX asrda yashab ijod qilgan, o'zlarining betakror ijrolari bilan o'zbek milliy musiqa san'atida nom qozongan ustoz san'atkorlarimiz haqida ma'lumotga ega emas. Milliy cholg'u sozlarimiz tarixi va yaratilishi to'g'risida bilimlari yo'q. Yoshlarimiz milliy cholg'ularimizning nomlarini ham bilishmaydi. Rubobni “dutar” deydi. “Ting'ir – ting'iringni bas qil”, - degan so'zlarni ko'p eshitamiz. Maktab o'quvchilari ham bizning milliy cholg'u sozlarimiz sanalgan: chang, ud, g'ijjak, doira, nay, tanbur, rubob, qonun va boshqa cholg'u sozlari va ularning mashxur ijrochilari haqida xech qanday ma'lumotga ega emas. Yoshlar bu milliy cholg'u sozlarimizdan ko'ra gitara, organ, klarnet, akkordeon cholg'u sozlarini yaxshi taniydi. Kim nimani yoki kimni yaxshi tanisagina, o'sha narsani yaxshi ko'radi. Milliy cholg'ularni yaxshi tanimasdan, ular haqida ma'lumotga ega bo'lmasdan, yoshlar ularni yaxshi ko'rib qolishmaydi.

Kalit so'zlar: mumtoz musiqa, an'anaviy ijrochilik, xonanda, cholg'u sozlar, milliy qadriyatlar.

Buning uchun ustoz hofiz san'atkorlarning, bastakorlarning, xonanda-yu sozandalarning va milliy cholg'u sozlarimizning suvratlarini televidenie va radio orqali reklama roliklarida targ'ibot qilish, hamda o'sha suvratlarni maktab o'quvchilarining kundalik daftarlari va boshqa fanlardan yozuv daftarlari muqovalariga joylashtirish kerak. Bu targ'ibotdan maqsad xalqimizga, ayniqsa yoshlarga o'zbek milliy cholg'u sozlarini yaqindan tanishtirish. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak.

Birinchidan: o'zbek xalq cholg'u sozlarining nomlarini aniq bilib olish;

Ikkinchidan: har bir cholg'u sozining ko'rinishi va shaklini bilish;

Uchinchidan: ushbu cholg'u sozi o'zbek milliy cholg'u sozlarining qaysi guruxiga mansubligini bilish;

To'rtinchidan ushbu cholg'u sozida ijrochilik borasida yurtimizda va dunyo miqyosida nom taratgan ustoz sozandalarning ismlari, hayoti va ijodi bo'yicha ma'lumotlarni bilishlari lozim bo'ladi.

O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Og'zaki professional muzikaning tarixi juda qadimiy va boy bo'lsa ham, hech qachon hozirgidek diqqatga sazovor bo'lgan emas. So'nggi paytlarda og'zaki an'adagi professional musiqani oliy, o'rta va boshlang'ich o'quv muassasalarida amaliy va nazariy o'zlashtirish masalalari yo'lga qo'yilmoqda. Barchamizga ma'lumki, xalqimiz milliy, mumtoz musiqalarimizni chin dildan, e'zozlab, tushunib tinglashdan afsuski uzoq yillar uzoqlashtirildi.

Shashmaqomni, mumtoz ashulalarimizni, xalq qo'shiqlarini e'zozlab, qadriga etib, maza qilib tinglaydiganlar - jonajon yurtimizda istiqomat qilayotgan 38 milliondan ortiq aholimizga nisbatan qarab chiqadigan bo'lsak, juda ozchilikni tashkil etadi. Dunyodagi aksar xalqlar o'z milliy musiqasini, ota-bobolaridan meros bo'lib kelayotgan "asori atiqalarini ko'z qaro chig'idek asrab-avaylab, qadr-qimmatini bilib tinglashadi. Shu

o'rinda bir savol tug'iladi. Nima uchun biz milliy va mumtoz musiqa san'atimizning gultoji bo'lgan, maqomlarimizday "bebaho javohirot"i mizni qadriga etmasligimiz kerak?

Avvalo, tarbiya, milliy mentalitetni shakllantirish, an'ana bo'lib kelgan o'zbekona urf – odatlarni, allomalarimizning odob, axloq, insoniy fazilatlar, muomala madaniyati haqida bizga qoldirgan rivoyat, maqol, masal, ertak va shular singari hikmatlarini farzandlarimizga etkazish oiladan boshlanadi. Demak, birinchi navbatda tarbiyalovchi ota – onalarimiz ham ajdodlarimiz merosidan xabardor va o'z farzandlariga to'g'ri tarbiya bera oladigan darajada bilimdon bo'lishlari lozim. Farzandlariga to'g'ri tarbiya berish uchun ota-onalar albatta Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub", Zahiriddin Boburning "Boburnoma" asarlarini o'qishlari va chuqur tahlil qilishlari lozim.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixini, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari tasavvur qilish qiyin. "Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunish zarur. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Keyingi vaqtlarda O'zbekistonda milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Bu Ona yurtga ehtirom, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim".

Prezident Shavkat Mirziyoevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida etuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g'ayrat bag'ishlamoqda.

Ota-onalar o'z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo'lib, ularni ma'nan oziqlantirar ekan, eng avvalo, o'zlari o'zaro muomala jarayonida namuna bo'lishlari hamda farzandlarini ko'proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari, so'ngra o'z fikrlarini axloq me'yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir. Ta'kidlash joizki, diqqat va mahorat bilan eshitish odobi va malakasiga "mahorat bilan eshitish" bilimlarini mustahkamlash orqaligina ega bo'lish mumkin. Albatta, ijtimoiy hayot davomida oilada ota-ona va bola o'rtasida turli voqea va hodisalar, tushunmovchiliklar bo'ladi. Insonning eng sof tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning qalb qo'ri, mehr-muhabbati, shirin so'zi orqali shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi.

"Shashmaqom" – bu qat'iy va ma'lum bir lad asosiga mos keladigan, muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashula majmuasidir. Shashmaqom faqat zodagonlarning yig'inlarida, Amir va xonlar saroyidagi musiqiy majlislarda ijro etilgan. Ashulalarning so'zlari ohanglarga mazmunan mos bo'lgan. Bunday musiqiy majlislarni o'tkazish uchun saroylarda alohida sozandalar, xonandalar va ularga o'rgatuvchi maqom ustozlari uchun lavozimlar belgilangan. Yuqori darajadagi ijro mahoratiga erishish va buni nazorat qilishni – eng ulug' Ustozlarga yuklatilgan.

Shashmaqom O'rta Osiyoda Islom dini kirib kelishidan avvalroq saroy musiqasi sifatida paydo bo'lgan. Buxoro shahrida yashovchi yahudiylar XI-X asrlarda bir necha maqom ijrochiligi maktablarini yaratgan. XVI asr oxirlarida Buxoro xonligi davrida maqom ijrochiligi rivojlangan. Shashmaqom ashulalari tojik va o'zbek tillarida ijro etilgan. Buxoro yahudiylari XX asrgacha Shashmaqom ijrochiligini etkazib kelishgan. Maqomlar O'zbekiston va Tojikistonda keng tarqalgan. Buxoro maqomlari tsikli haqida alohida gapirilishining sababi shuki, Buxoro bir qancha asrlar davomida siyosiy va

madaniy markaz , professional muzika taraqqiy etgan joy hisoblanar edi.Usta maqomchilardan Ota Jaloliddn Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, Domulla Halim Ibodov, Levi Boboxonov kabilar Buxoroda yashab, o'z ijodlari bilan shuhrat qozonganliklari tasodifiy emas. Shashmaqomning ikkinchi hayoti uchun o'sha ustozlarning hizmatlari juda buyuk.

O'zbek xalq ashula san'atining boshqa janrlaridagi kabi maqomlarda ham ovoz yuqorilashi va sekin-asta pasayishi doim bir biri bilan aloqada va munosabatda bo'ladi. O'zbek xalq ashulalaridagi avj ularningxarakterli xususiyatlaridan biridir.Maqomlarda avj ayniqsa katta ahamiyatga ega.Shu sababli avj asosiga qurilgan melodik formulalar alohida –alohida nomlarga ega. Bular “Turk”, “Zebo pari”, “Muhayyar” kabi keng tarqalgan avjlardir.Avjlar maqomlarning turli qismlarida bir necha bor paydo bo'ladi.Lekin bu avjlar bir-biridan farq qiladi.Eng yuqori registrga chiquvchi faqat bitta avj bo'lib, uni “katta avj” deb ataladi.Qolganlari bo'lsa, yo'l-yo'lakay uchrovchi avjlar bo'lib, ular eng yuqori o'sishni tayyorlab beradi.

O'zbek mumtoz musiqa san'ati ijrochiligida azaldan ustozlarimizdan bizgacha etib kelgan “butun hofiz”, “butun sozanda” degan unvonlar bo'lgan. Bu “unvon”ga mumtoz kuy yoki ashulani o'z ovozi bilan risoladagidek ijro eta olgan, xonandalikning barcha talablariga layoqatli bo'lgan, ovozda ham, ijroda ham yuksak mahorat ko'rsata olgan, hamda, albatta biron cholg'u sozida (tanbur, dutor, soz, rubob, tor kabilar) o'ziga jo'r bo'la oladigan hofizlarga sazovor bo'lgan.Shuning uchun har-bir xonanda albatta biron cholg'u sozini mukammal chala oladigan bo'lishi talab etiladi.

Ma'naviy merosimiz asoschilaridan biri buyuk alloma Abu Nasr Forobiy haqidagi bir rivoyatda “musiqa, ya'ni cholg'u sozi tinglovchini xursand qilib raqsga tushuradi, mungli ohanglar ijrosi yig'latadi va mayin, alla misoli sokin navolar esa uxlatadi”, deb aytilgan. Mana shu rivoyatda ham ko'p hikmat bor. Allox-Taolo Odam Atoni yaratayotganda uning tanasini loydan yasab, tanaga ”jon”ni, ya'ni “Ruh”ni “kir Odamning jismiga” deydi. Ruh Odam Atoning jismiga kirishga qo'rqadi.Ikkinchi bor

yana shu holat takrorlanadi. Shundan so'ng farishtalarga "ETTI OLAM"dan "ETTI OHANG"ni keltirish buyuriladi. "ETTI OHANG" keltirilgandan so'ng nay cholg'u sozining mayin ovozi bilan "jon", ya'ni "RUH" Odam Atoning jismiga kiradi. Bu rivoyatdan shu fikr kelib chiqadiki, musiqa Odam Atodan bizga meros bo'lib qonimizda oqmoqda.

Bundan bir yarim ming yil avval Alloh-Taolo dargohidan yuborilgan Qur'oni Karim oyatlari ham Jabroil Alayxissalom tomonidan payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom SAVga ohang, ya'ni qiroat bilan tushurilgan. Qur'oni Karim oyatlarining qiroat bilan o'qilishi barchani o'ziga tortgan. Ming yillik tarixga ega bo'lgan maqomlarimizning aynan bizning hududimizda yaratilganligi xalqimizning ming yillar oldin ham ma'naviyati, madaniyati yuksak darajada bo'lganligini, hamda yashash tilsimini topganligini bildiradi. Ana shu noyob musiqiy merosimizni bizning davrimizgacha etib kelayotganligi ota-bobolarimizning maqomlarimizdan, milliy musiqa ijrochiligidan juda yaxshi habardor bo'lganligidan dalolatdir.

Azaldan maqomlarimizni, mumtoz ashula va kuylarimizni o'rganish "Ustoz-shogird" an'alarining davomiyligi vositasida amalga oshirilgan. Ovoz yozish uskunolari yaratilmagan davrlardan beri nafaqat musiqa, san'at sohasida, balki barcha kasblarni mukammal egallashda, masalan: xunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, tijorat ishlarini o'rganishda "Ustoz-shogird" an'analari qo'llanilib kelingan. Musiqa sohasida ustoz biron ashula yoki kuyni ijro etgan, shogird o'sha asarni zukkolik bilan tinglab, qulog'iga olgan. Ijro qilish qiyinchiliklarini, mahorat sirlarini ustoz og'zaki ravishda tushuntirib bergan. Bu sohaga faqat Yaratgandan yuqtirgan, ya'ni musiqiy qobiliyati, musiqiy asarning ijrosini, ohanglarini yuksak did bilan tinglash va uni idrok qila olish xususiyatlariga ega bo'lgan shogirdlarga o'zlarini urishgan. Eng asosiysi shogirdlarga albatta ALLOH TAOLOdan musiqiy ohanglarni tinglab, his qila oladigan, eslab qaytadan ijro qilib bera oladigan va o'sha ohang usulini qat'iy yuragidan o'tkaza oladigan unsurlar berilgan bo'lishi shart bo'lgan.

“Ustoz-shogird” an’alarining eng muhim afzalliklaridan biri shuki, ustoz shogirdiga uning ijrosini tinglab, yutuq va kamchiliklarini to’g’rilab ta’lim beradi. Shogird ustozining ijrosini ko’p marotaba tinglaganidan so’nggina ustoz aytganidek, kamchiliklarni bartaraf qilib, ustozidan tinglab qabul qilganidek ijro qila oladi. Buning uchun shogirdlarga ko’p muddat ustozni tinglash, uning mashg’ulotlarini, ijro vaqtidagi uslublarini, sahnadagi mahoratlarini kuzatishlari lozim bo’ladi. Ustoz bergan vazifani to’liq o’zlashtirmagunga qadar shogird uzoq tayyorlanishi kerak. Demak, milliy va mumtoz ashulalarni o’rganishda nota yozuvidan tashqari, ustozlarning, yana takrorlayman, bir emas bir necha ustozlarning ijrolarini yaxshilab tinglash zarur. Kerakli “ozuqa”ni mukammal olganidan keyingina tayyorlagan asarini avval ustozga, so’ngra sahnaga, muxlislarga havola qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali Ibn Sino. Qonun-fit-tib. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2020. – 233 b.
2. Karimova D. Oliy ta’limda musiqa ta’limi fanlarini o’qitish metodikasi. – T.: O’qituvchi, 2018 – 129 b.
3. Shavkat Mirziyoyev. “Milliy maqom san’atini rivojlantirish va yoshlar ongiga singdirish” to’g’risidagi 2017 – yil 17 noyabrdagi Qarori.
4. Yunus Rajabiy. O’zbek xalq muzikasi. 1,3, 5,9-jildlar. – T
5. Konurova Leyla Ruslanovna MUSIC THERAPY AS A MEANS OF CORRECTING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF CHILDREN SENIOR PRESCHOOL AGE [Vol. 7 No. 2 \(2024\): PEDAGOG](#)
6. Konurova , L. . (2023). MUSIC AS AN EFFECTIVE MEANS OF AESTHETIC EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(6), 34–37. ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://www.in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/11558>

7. Tursunaliyev, A. ., & Kuychieva, Z. . (2025). LEVELS OF DEVELOPMENT OF PUPILS IN THE FINE ART AND TECHNOLOGY OF THE INDIVIDUAL APPROACH . Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 2(2), 139–145.